



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th February, 2025

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA DIDAKTIK O'YIN TEXNOLOGIYALARI

To'raqulova Gulchehra Egamqulovna

Xalqaro Nordik Universiteti magistranti va 23-DMTT direktori

gulchehraturakulova@gmail.com

Annotatsiya:

Bugungi kunda ta'lrim jarayonini bolalar uchun yanada qiziqarli va samarali qilish maqsadida didaktik o'yin texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagи bolalarning rivojlanishida ushbu texnologiyalar alohida o'rinn tutadi. Bolalar bu bosqichda o'yin orqali o'qish, o'rganish va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga moyil bo'ladilar. Didaktik o'yinlarning mohiyati.

Kalit so'zlar: Didaktik o'yin, shakl, bilm, ko'nikma, malaka, diqqat, rivojlanish, ijodkorlik, qobiliyat, faollik.

Bog'cha yoshidagi bolalar o'zlarining o'yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg'a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar. Bog'cha yoshidagi bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida shu narsalar bilan bevosita amaliy munosobatda bolishga intiladi. Bu o'rinda shu narsa xarakterliki, bola bilishga tashnaligidan atrofdagi o'zining haddi sig'adigan narsalari bilangina emas, balki kattalarga mansub bo'lgan o'zining kuchi ham yetmaydigan, xaddi sig'maydigan narsalar bilan ham amaliy munosobatda bo'lishga intiladi. Didaktik o'yin – bu ta'lim mazmunini bolalarga o'yinga moslashtirilgan shaklda yetkazishning bir usuli. Ushbu texnologiyalar bolalarning diqqatini jalg qilish, ular uchun qiziqarli sharoit yaratish va bilim olish jarayonini tabiiy hamda oson tushunarli qilishni maqsad qiladi.

O'yinning asosiy vazifalari:

1. Bilim berish: Bolalarga yangi tushunchalar va bilimlarni o'rgatish.
2. Ko'nikmalarni shakllantirish: Amaliy faoliyat orqali bola o'z bilimlarini qo'llashni o'rganadi.



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th February, 2025

3. Ijodkorlikni rivojlantirish: Bolalarning fantaziyasi va mustaqil fikrlash qobiliyatini rag'batlantirish.

Didaktik o'yinlarning turlari

1. Tarbiyaviy o'yinlar: Bolalarga axloqiy me'yorlar, muloqot madaniyati va ijtimoiy ko'nikmalarini o'rgatadi. Masalan, "Yaxshi va yomon xatti-harakatlar" o'yini.
2. Ta'limiylar: Matematik hisoblash, ranglar va shakllarni ajratish, harflar va so'zlarni o'rgatuvchi o'yinlar. Masalan, "Ranglarni top" yoki "Shaklni aniqlang".
3. Harakatli o'yinlar: Jismoniy faoliyatni rag'batlantiruvchi o'yinlar. Masalan, "Kim tezroq topadi?" o'yini.
4. Logik o'yinlar: Bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Masalan, jumboqlar, domino yoki oddiy matematik o'yinlar.

Didaktik o'yinlarning afzalliklari

Qiziqlarlilik: O'yin shakli bolalarda ishtiyoq uyg'otadi va bilim olishni yanada qiziqarli qiladi.

Individual yondashuv: Har bir bolaning qobiliyatiga mos keluvchi o'yinlar tanlanishi mumkin.

Ijtimoiylashuv: Jamoaviy o'yinlar bolalarda muloqot qilish va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ijodiy rivojlanish: Bolalar ijodiy muammolarni hal qilishni o'rghanadilar.

Didaktik o'yinlarni tashkil qilish bosqichlari

1. Maqsadni belgilash: O'yin orqali qanday maqsadga erishmoqchi ekaningizni aniqlash.
2. Materiallarni tayyorlash: O'yinga mos bo'lgan qurollar, materiallar va resurslarni tayyorlash.
3. O'yin qoidalarini tushuntirish: Bolalarga qoidalarni oddiy va tushunarli qilib izohlash.
4. Jarayonni boshqarish: O'yin davomida bolalarni kuzatish va ularning faol ishtirokini ta'minlash.



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th February, 2025

5. Xulosalar chiqarish: O‘yin yakunida bolalarning yutuqlari va kamchiliklarini tahlil qilish;

Didaktik o‘yinlar mактабгача yoshdagi bolalar tarbiyasi va ta’limida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan eng samarali usullardan biridir. Bu usulning dolzarbligini ilmiy tadqiqotlar ham tasdiqlab kelmoqda. Ta’limning ushbu shaklini o‘rganish bo‘yicha yetakchi olimlarning fikrlari va hozirgi kunda bu texnologiyalarning ahamiyati haqida kengroq ma’lumot keltirib o‘tamiz.

1. Jan Piaye (Jean Piaget) – bolalarning kognitiv rivojlanishi bo‘yicha mashhur olim, didaktik o‘yinlarni bolalar tafakkuri va idrokini rivojlantirishda eng samarali usullardan biri deb biladi. Unga ko‘ra, bolalar o‘yin orqali dunyoni bilishadi va tajriba orttiradilar. O‘yin kognitiv rivojlanishning muhim bosqichidir.

2. Lev Vigotskiy (Lev Vygotsky) – o‘yin bolalar ijtimoiy va madaniy rivojlanishining asosi ekanini ta’kidlagan. Uning fikricha, o‘yinlar orqali bolalar o‘z atrof-muhit bilan muloqot qiladi va jamiyat qoidalarini o‘rganadi. Ayniqsa, “yordam ko‘rsatish zonasida o‘rganish” (Zone of Proximal Development) tushunchasi didaktik o‘yinlarda o‘ta dolzarbdir.

3. Maria Montessori – mashhur pedagog, o‘yin va ta’lim bir-birini to‘ldiradi deb hisoblagan. Uning metodikasida bolalarning mustaqil faoliyatini rag‘batlantiruvchi didaktik o‘yinlar asosiy o‘rinni egallaydi.

4. Howard Gardner – ko‘p intellekt nazariyasi asoschisi. U o‘yinlar bolalarning har xil intellektual ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ekanligini aytadi. Masalan, mantiqiy, vizual, musiqiy yoki kinestetik intellektni rivojlantiruvchi o‘yinlar. Hozirgi davrda didaktik o‘yinlarning dolzarbli. Bugungi kunda ta’lim va tarbiya tizimida didaktik o‘yin texnologiyalariga talab ortmoqda.

Bunga bir necha omillar sabab bo‘lmoqda:

1. Raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash: Zamonaviy bolalar raqamli qurilmalar bilan o‘sib borayotganini hisobga olib, didaktik o‘yinlar onlayn platformalar va



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th February, 2025

mobil ilovalar orqali ham ishlab chiqilmoqda. Masalan, bolalar uchun mo‘ljallangan ta’limiy dasturlar o‘yin shaklida taqdim etiladi.

2. Shaxsiy yondashuvning zarurligi: Hozirgi zamon ta’limi individual yondashuvni talab qiladi. Didaktik o‘yinlar har bir bolaga uning ehtiyoj va qobiliyatlariga mos ravishda ta’lim olish imkonini beradi.

3. Soft-skills rivoji: Didaktik o‘yinlar faqat bilim berish bilangina cheklanmaydi, balki bolalarda muhim hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, muammo yechish, ijodiy fikrlash, jamoa bilan ishlash.

4. Stressni kamaytirish: Bolalar uchun bosimni kamaytirib, ta’limni qiziqarli va oson qabul qilinadigan shaklda tashkil qilish bugungi kunda juda muhim. Didaktik o‘yinlar bu vazifani mukammal bajaradi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz joizki, didaktik o‘yinlar mактабгача ta’lim tizimining ajralmas qismi bo‘lib, bolalar rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ilmiy yondashuvlar va texnologiyalar yordamida bu uslub tobora mukammallahib bormoqda. Hozirgi davrda didaktik o‘yinlarni qo‘llash nafaqat bolalar, balki ta’lim tizimining barcha ishtirokchilari uchun samarali natijalar olib kelmoqda. Shu sababli, ushbu sohada ilmiy izlanishlar va amaliyotlarni davom ettirish muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Qayumova N Maktebgacha pedagogika.
2. Hasanboyeva O, Sariboev X, Hasanboev J, Niyazov T, Usmonboeva M Pedagogika (-T: Fan, 2006).
3. Yusupova P Maktebgacha pedagogika (-T: Oqituvchi, 1996).
4. Loginova VI va Samorukova PG Maktebgacha tarbiya pedagogikasi (-T: Oqituvchi, 1991).
5. Shodmonova Sh Maktebgacha pedagogika (-T: Fan va texnologiya, 2005) kabi darslik va oquv qollanma.